

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/27.02.2020.F.72.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**SABIROV NAZIR NAJMETDINOVICH**

**“YANGI O‘ZBEKISTONNING TARAQQIYOT STRATEGIYASI”DA  
FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINING ROLINI OSHIRISH**

**09.00.04 – Ijtimoiy falsafa**

**FALSAFA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Buxoro – 2023**

**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
философским наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)  
on philosophical sciences**

**Sabirov Nazir Najmetdinovich**

“Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da fuqarolik jamiyati  
institutlarining rolini oshirish ..... 5

**Сабилов Назир Нажметдинович**

Повышение роли институтов гражданского общества в стратегии развития  
Нового Узбекистана ..... 23

**Sabirov Nazir Nazhmetdinovich**

Increasing the role of civil society institutions in the development strategy of the  
New Uzbekistan ..... 45

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ  
List of published works..... 49

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/27.02.2020.F.72.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**SABIROV NAZIR NAJMETDINOVICH**

**“YANGI O‘ZBEKISTONNING TARAQQIYOT STRATEGIYASI”DA  
FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINING ROLINI OSHIRISH**

**09.00.04 – Ijtimoiy falsafa**

**Falsafa fanlari bo`yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Buxoro – 2023**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/Fal756 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Huseynova Abera Amanovna**  
falsafa fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Xajiyeva Maqsuda Sultonovna**  
falsafa fanlari doktori, professor

**Saitqosimov Akbar Isaxonovich**  
falsafa fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**O‘zbekiston Milliy universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/27.02.2020.F.72.08 raqamli ilmiy kengashning 2023 yil “27” may soat 14<sup>00</sup> dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-29-14; faks: (65) 221-57-27, e-mail: buxdu\_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (306 raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-25-87.)

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil “15” may kuni tarqatildi.  
(2023 yil “15” may dagi 6 raqamli reyestr bayonnomasi.)



**Navro‘zova G. N.**

Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash raisi,  
falsafa fanlari doktori, professor

**Sharipov A. Z.**

Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash kotibi,  
falsafa fanlari doktori, professor

*S.Ko7*

**Salomova H. Yu.**

Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,  
falsafa fanlari doktori, professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati.** Jahonda XXI asr taraqqiyoti har bir davlatning ichki birlashtiruvchilik roli va har qanday jamiyatning o‘zaro birlashish harakati ortib borayotganligi bilan xarakterlanadi. Shu bois adolat ustuvor bo‘lgan fuqarolik jamiyatini barpo etishda kishilarning umumiy maqsadlari va vazifalari borasida o‘zaro munosabatga kirishishlari hamda bu munosabatlarni tartibga solishda o‘zini o‘zi boshqarish organlari, siyosiy partiyalar, harakatlar, kasaba uyushmalari, jamoat birlashmalari va jamg‘armalari, nodavlat notijorat tashkilotlari, mustaqil ommaviy axborot vositalari faoliyatini rivojlantirish, ularni takomillashtirish zarurati namoyon bo‘lmoqda. Ayniqsa, fuqarolik jamiyati institutlariga jamiyatni affiliativ integratsiyalovchi sub’ekt sifatida yondashish hamda mazkur ijtimoiy faoliyatni maqsadli tadqiq etish, fuqarolik jamiyati institutlari shaxsning ma’naviy barkamolligiga erishuvidagi faoliyatini takomillashtirishning ijtimoiy-falsafiy xususiyatlarini ochib berish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon ilm-fanida davlat hokimiyati bilan jamiyat o‘rtasidagi munosabatlar, fuqarolik jamiyati hodisasiga kompleks yondashuv, fuqarolik jamiyatini liberalizm hamda demokratiya munosabati nuqtai nazaridan talqin etishga oid tadqiqotlar olib borilmoqda. Fuqarolik jamiyati asoslarini amalda barpo etish, inson haq-huquqlari va erkinliklarini ta’minlashda fuqarolik jamiyati institutlari jamiyat barqarorligi va mamlakat taraqqiyoti uchun muhim omil hisoblanadi. Shu sababli davlat idoralari va mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari bilan hamkorlikda inson huquq va erkinliklariga rioya qilish, etnik-madaniy rivojlanishini ta’minlash, atrof-muhitni muhofaza qilish va boshqa muammolarni hal etishda fuqarolik jamiyati institutlarining “o‘shish nuqta”larini shakllantirish, bu faoliyatga oid qonunchilikni rivojlantirish asoslarini ishlab chiqish zarurati ortib bormoqda.

Mamlakatimizda “inson-jamiyat-davlat” tamoyili asosida faol fuqarolik jamiyatini shakllantirish, inson huquqlari va qonuniy manfaatlarini, demokratik qadriyatlarni himoya qilish, aholining siyosiy madaniyati va huquqiy ongini oshirish, dolzarb masalalarni hal etishda hamkorlikni kuchaytirishga oid islohotlar jadal olib borilmoqda. “Shuningdek, 2030 yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda parlament va fuqarolik jamiyati institutlarining rolini yanada oshirish, qonun ustuvorligini mustahkamlash, milliy qonunchilik va huquqni ko‘llash amaliyotini inson huquqlari bo‘yicha xalqaro majburiyatlarga muvofiqlashtirish eng dolzarb vazifalarimiz sirasiga kiradi”<sup>1</sup>. Shu nuqtai nazardan Yangi O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatining institutlarining o‘zaro hamkorlik aloqalarini tizimli yo‘lga qo‘yish orqali ijtimoiy muammolarni aniqlash va yechimini topishga qaratilgan, shuningdek, ularning “o‘shish nuqta”larini shakllantirish hamda madaniy-ma’rifiy salohiyatni yuksaltirishdagi o‘rnini mustahkamlashga oid ilmiy xulosa va amaliy taklif-tavsiyalarni asoslab berish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

---

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: “O‘zbekiston”, 2021. – Б.70.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2018 yil 4 maydagi PF-5430-son “Mamlakatni demokratik yangilash jarayonida fuqarolik jamiyati institutlarining rolini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020 yil 29 oktyabrdagi PF-6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2021 yil 4 martdagi PF-6181-son “2021-2025 yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” farmonlari, 2019 yil 31 oktyabrdagi PQ-4501-son “Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish markazi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021 yil 26 martdagi PQ-5040-son “Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, qarorlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023 yil 6 maydagi 192-son “Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontsepsiyasini 2023 va 2024 yillarida amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori, shuningdek sohaga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Fuqarolik jamiyati to‘g‘risidagi qarashlar yunon faylasuflari Aflotun, Arastu, Sharq madaniy merosidan Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Nizomulmulk, Amir Temur, Alisher Navoiy kabi buyuk mutafakkirlarimiz va davlat arboblari asarlarida o‘z ifodasini topgan bo‘lib, hokimiyatda qonun ustuvorligi, kishilik jamiyatini shakllantirish, ijtimoiy-siyosiy jihatdan mustahkam va barqaror davlat barpo etish, xalq orzu istaklari, madaniyati, an‘ana hamda mentalitetining milliy fuqarolik jamiyati institutlariga ta‘siri bo‘yicha o‘zlarining mulohazalari bilan munosib hissa qo‘shdilar<sup>2</sup>. Klassik olimlar J. J. Russo, O. Kont, E. Dyurkgeym, G. Spenser jamiyatni ijtimoiy tizimlashtirishning dolzarbligini sotsiologik jihatdan o‘rganib, alohida iz qoldirishgan<sup>3</sup>.

Yevropa va Amerika mamlakatlari, mustaqil davlatlar hamdo‘stligi olimlarining mavzuga doir ilmiy-tadqiqot izlanmalari muhim ahamiyat kasb etib, xususan, K. Popper, S. Grishanova, N. Ignatov, V. Shapar, R. Darendorf,

---

<sup>2</sup> Афлотун. Қонулар. / Рус тилидан Урфон Отажон таржимаси. – Тошкент: “Янги аср авлоди”, 2002. – 384 б.; Аристотел. Ахлоқи кабир. / Тарж. Зоҳир Аълам, Урфон Отажон. – Тошкент: “Янги аср авлоди”, 2016. – 384 б.; Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шаҳри. Фозил одамлар шаҳри / Тарж. А.Ирисов. – Тошкент: “Янги аср авлоди”, 2016. – 320 б.; Абу Райхон Беруний. Танланган асарлар. . – Тошкент: “Фан”, 1968. – 458 б.; Низомулмулк. Сиёсатнома (Сияр ул-мулк). / Тарж. Ш. Воҳидов. . – Тошкент: “Янги аср авлоди”, 2008. – 240 б.; Султонов К. Соҳибқирон Амир Темурнинг маънавий жасорати. – Тошкент, 2021. – 110 б.; Алишер Навоий (Тўла асарлар тўплами). 1 жилд. . – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги халқ мероси нашр. 2013. – 804 б.;

<sup>3</sup> Руссо Ж.Ж. Об общественном договоре. Трактаты. – Москва: “КАНОН-пресс”, 1998.; Конт О. Дух позитивной философии. – СПб., 2001.; Дюркгейм Э. О разделении общественного труда /пер. с фр.; под ред. А.Б. Гофмана. – Москва: “КАНОН-пресс”, 1996. - 432 с; Спенсер Г. Личность и государство / Перев. Тимофеева М. – Москва: АСТ, 2023. – 224 стр.

A. Tokvil, A. Aleksandrov, D. Okolshev, I. Okolsheva kabi olimlar o'z izlanmalarida jamoatchilik fikri hodisasining ilmiy-nazariy hususiyatlari ochib berilgan bo'lib, ilmiy yondashuvlari talqin etilgan hamda fuqarolik jamiyati institutlari va jamoatchilik fikri hamjihatligining affiliativ jihatlarini o'zaro manfaatli tomonlari ko'rsatilgan<sup>4</sup>. Shuningdek, zamonaviy sharqshunos olimlardan Yunhe Kang, R. Pekkanen, A. Koshelev singari olimlar fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini takomillashtirishda alohida e'tibor qaratishgan<sup>5</sup>.

Mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini rivojlanishida va uning institutlari faoliyatini takomillashtirishga salmoqli hissa qo'shib kelayotgan olimlarimiz A. Saidov, M. Qirg'izboyev, B. To'ychiyev, A. O'tamurodov, H. Salomova, A. Huseynova, M. Bekmurotov, T. Matibaev, Q. Jo'raev, S. Saidov, M. Xajiyeva, A. Saitqosimov, Q. Nazarov, J. Yaxshilikov, N. Muxammadiyev, A. Sharipov fuqarolik jamiyatining o'ziga xos xususiyatlari va belilarini, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy va iqtisodiy asoslarini nazariy jihatdan o'z fikr va mulohazalarini bildirganlar<sup>6</sup>.

Dissertatsiyani yozish jarayonida nomlari ko'rsatilgan va boshqa bir qator o'zbek hamda jahon tadqiqotchilarining ilmiy izlanishlari, asarlari, tadqiqotlarida mavzuimizga doir ilmiy nazariy yondashuvlarga alohida e'tibor qaratildi. Dissertatsiyada ulardan farqli ravishda fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini takomillashtirishda, davlat boshqaruvida ijtimoiy, iqtisodiy barqaror jamiyatni barpo etish, ijtimoiy sheriklik va jamoatchilik nazoratining huquqiy, ijtimoiy

---

<sup>4</sup> Поппер К. Открытое общество и его враги. В двух томах. Том 1,2. -Москва: Феникс, 1992. - 448 с.; Гришанова С. Формирование и функционирование общественного мнения в демократическом обществе : автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата политических наук : специальность 23.00.02. - Москва, 2009. - 20 с.; Игнатов Н.Г., Мотков С.И. Роль СМИ в процессе формирования общественного мнения // Вестник Московского университета Сер. 10. Журналистика. –1997.; Шапар В.Б. Новейший психологический словарь / В.Б. Шапар, В.Е.Россоха, О.В. Шапар; под общ.ред.В.Б. Шапара. – Изд.3-е- Ростов н/Д.: Феникс, 2007.; Дарендорф Р. Элементы теории социального конфликта / Ральф Густав Дарендорф. – Москва : Директ-Медиа, 2007. – 21 с.; Токвил А. Демократия в Америке: Пер. с франц. / Предисл. Гаролда Дж. Ласки. – М.: Прогресс, 1992; Александров А. С. Зарубежный опыт общественного контроля и общественного воздействия на осужденных к лишению свободы // Вестник Кузбасского института. 2018; Околышев Д. А., Околышева И. А. Особенности институционализации общественного контроля в России и за рубежом // Вестник научных конференций. 2017;

<sup>5</sup> Yoonhee Kang. Korean Civil Society and Trust-Building between South Korea and the United States. *Asia Policy* No. 13 (January 2012); Robert Pekkanen. Grassroots Democracy and Civil Society in Japan . *Aducation about asia* Volume 16, Number 3, Winter 2011; Кошелев А.М. Внутренние факторы формирования японского социума // Пут Востка. Традиции освобождения. Санкт – Петербургское общество, 2000

<sup>6</sup> Saidov A. Davlat va huquq asoslari. - Toshkent: Shark, 2002, - 720 b.; Qirg'izboev M. Fuqarolik jamiyati: genезиси, shakllanishi va rivojlanishi.- T.: Ўзбекистон, 2010.; Tuychiev B. Social problems of political culture formation. // Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb masalalari. April, 2022 <https://nuu.uz/> International Scientific Conference; Fuqarolik jamiyati fani b'uyicha darслик loyihasi. Toshkent – 2016; Salomova H.Yu. Sotsiologiya darslik. - V.: «Durdona», 2022. - 352 b.; Bekmurodov M.B. Zamonaviy boshqaruv sotsiologiyasi. - T.: Yoshlar nashriyot uyi, 2020.; Matibaev T. Ijtimoiy hamkorlik va demokratiya: davlat va jamiyat ha'tining barqaror taraqqiyot i'ulida. «Bilim va intellektual salohiyat», Toshkent: 2019.; Jalilov A., Muxammadiyev U., J'uraev Q. Fuqarolik jamiyati asoslari: uquv q'llanma / Toshkent: 2015.; Saidov S. Ijtimoiy kapital-fuqarolik jamiyatning muhim mezonlari. «Kafolat print company» Toshkent: 2019.; Nazarov Q. Jaxon falsafasi komusi. Ikki tomlik.- Toshkent: Ўзб.файл. миллий жам. нашр, 2019; Haxiyeva M. Ўзбекистонда толерантлик жараёни. – Toshkent: Абу матбуот-консалт, 2008. - 180 б.; Яхшиликков Ж., Мухаммадиев Н. Миллий гоё: Ўзбекистонни ривожлантириш стратегияси. –Ташкент: Чўлпон, 2018. - 722 б.; Шарипов А.З. Ижтимоий ҳамкорлик тўғрисидаги замонавий қарашларнинг тинчлик ва барқарорликни мустаҳкамлашдаги ўрни. Фалсафа фан. ном. дисс. – Toshkent, 2011. – 140 б;

asoslarini ta'minlab berish uchun ishlab chiqilayotgan qonun hujjatlari va Yangi O'zbekiston strategiyasini har tomonlama o'rganishga alohida e'tibor qaratilgan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Buxoro davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq II band "Yangi O'zbekistonda ma'rifatparvar davlat barpo etishning ijtimoiy-falsafiy va ma'naviy-axloqiy asoslarini takomillashtirish muammolari" (2022-2026 yy) tadqiqot yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida fuqarolik jamiyati institutlarining rolini takomillashtirish imkoniyatlarini ochib berishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari.**

fuqarolik jamiyatining ijtimoiy hodisa sifatidagi tarkibi va mazmunini ilmiy tadqiq etish hamda uning tizim yasovchi elementlarini aniqlash;

rivojlanayotgan jamiyatni demokratlashtirishda fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini takomillashtirishning nazariy asoslarini tadqiq etish;

"Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini takomillashtirish va ijtimoiy hamjihatlikni ta'minlashdagi ijtimoiy-falsafiy jihatlarini asoslab berish;

fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish bo'yicha xorijiy tajribani tahlil etish va ma'lumotlar tasnifini ishlab chiqish;

O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarini "shaxs-jamiyat-davlat" uchligida rivojlantirish va inson qadri yuksak jamiyat barpo etish bo'yicha amaliy takliflar hamda tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqot ob'ekti** sifatida O'zbekiston ijtimoiy-siyosiy hayotida faol ishtirok etayotgan fuqarolik jamiyati institutlari faoliyati, ushbu institutlar faoliyatining huquqiy asoslari tanlab olingan.

**Tadqiqotning predmeti** fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini takomillashtirish, ularning mamlakatni sotsial-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy jihatdan yanada rivojlantirish bo'yicha loyihalar va dasturlarni amalga oshirish imkoniyatlarini tadqiq etishdan iborat.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda dialektik, analiz va sintez, kompleks yondashuv, retrospektiv tahlil, qiyosiy tahlil, strukturaviy tahlil qilish kabi usullardan foydalanilgan.

#### **Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

Yangi O'zbekistonda fuqarolik jamiyatining davlat idoralari va nodavlat tashkilotlari o'zaro hamkorlik aloqalarini tizimli yo'lga qo'yish orqali ijtimoiy muammolarni aniqlash va yechimini topishga qaratilgan maqsadli o'zaro birlashish harakati hamda davlatning ichki birlashtiruvchilik roli asoslab berilgan;

fuqarolik jamiyati institutlariga jamiyatni affiliativ integratsiyalovchi sub'ekt sifatida yondashish hamda mazkur ijtimoiy faoliyatni maqsadli o'rganish iqtisodiy va siyosiy turmushni ixtiyoriy asosda qurishga to'la erkinlikni kafolatlovchi ijtimoiy tizim ekanligi sababli ta'lim tizimiga joriy etish zarurati integrativ mexanizm sifatida asoslangan;

Yangi O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarining “o‘shish nuqta”larini pul-moliya va soliq tizimini shakllantirish, qonunchilikni rivojlantirish, korrupsiyani bartaraf etish kabi vazifalarini to‘g‘ri belgilash orqali ichki imkoniyatlarni maqsadga muvofiq yo‘naltirish hamda madaniy-ma‘rifiy salohiyatni yuksaltirishning amaliy platformasi yaratilgan;

fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini takomillashtirishda hududlarning etnomenal xususiyatlarini hisobga olgan inson imkoniyatlari va qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarish, jamiyat tinchligi va farovonligi, shaxsning ma‘naviy barkamolligiga erishishni intensivlashtirish mexanizmlari ochib berilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini takomillashtirishda “inson-jamiyat-davlat” uchligining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma‘naviy jarayonlarga ta‘siri tadqiq etilib, ularga ta‘sir etuvchi sub‘ekt va manbalari aniqlangan:

hozirgi kunda faoliyat yuritayotgan fuqarolik jamiyati institutlarining iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy sohadagi manfaatlarni ifodalovchi institutlar va tuzilmalar kabi mezonlar bo‘yicha tasniflash metodikasi takomillashtirilgan;

yoshlar o‘rtasida ijtimoiy-ma‘naviy muhitni sog‘lomlashtirish, mafkuraviy immunitetni mustahkamlash, yuksak axloqiylikni qaror toptirish, daxldorlik hissini kuchaytirish yo‘nalishlaridagi vazifalarni amalga oshirishda fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini optimallashtirishga doir tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchligi** tadqiqot jarayonida qo‘llanilgan nazariy qarashlar, tadqiqot usullari va yondashuvlar rasmiy manbalardan olinganligi, nashr etilgan ilmiy maqolalar, respublika va xalqaro konferensiyalarda sinovdan o‘tkazilganligi, tadqiqot ishi natijalari yuzasidan berilgan xulosalar, taklif ishlab chiqilganligi va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini tizimlashtirish va takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlarni belgilash, fuqarolarning siyosiy madaniyati va huquqiy ongini oshirishda, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlarini, normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va amalga oshirish faoliyatida, innovatsion g‘oyalarni taklif qiluvchi faol tashkilotga aylantirishning ilmiy-metodologik asoslarini ishlab chiqishda nazariy manba sifatida xizmat qilishi mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tadqiqotda asoslangan yondashuvlar va xulosalar asosida fuqarolik jamiyati institutlarining davlat organlari bilan hamkorligi darajasini, ularning mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qo‘shayotgan hissasini baholovchi ko‘rsatkichlarni ishlab chiqishda, bu ko‘rsatkichlar asosida davriy va maxsus, muqobil ma‘ruzalar tayyorlanishini tashkil etishda, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini 2023 va 2024 yillarda amalga oshirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi”da belgilangan vazifalar ijrosini ta‘minlashda, shuningdek, oliy o‘quv yurtalarida “Falsafa”, “Fuqarolik jamiyati asoslari” fanlaridan ta‘lim vositalarini takomillashtirishda muhim qo‘llanma sifatida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini takomillashtirish va rivojlantirish bo'yicha ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar asosida:

Yangi O'zbekistonda fuqarolik jamiyatining davlat idoralari va nodavlat tashkilotlari o'zaro hamkorlik aloqalarini tizimli yo'lga qo'yish orqali ijtimoiy muammolarni aniqlash va yechimini topishga qaratilgan maqsadli o'zaro birlashish harakati hamda davlatning ichki birlashtiruvchilik roliga oid nazariy umumlashmalar va xulosalardan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi NNT va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondining "Sog'lom turmush tarzini qaror toptirishda fuqarolik jamiyati institutlarining faolligini oshirish" mavzusidagi "Sayqal" nodavlat notijorat tashkilotida bajarilgan "Baxtiyor oila – baxtli jamiyat asosi" (2019-2020 yy.) grant loyihasini amalga oshirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondining 2023 yil 16 fevraldagi 23/1-89-son ma'lumotnomasi). Natijada, Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida fuqarolik jamiyati institutlarining rolini oshirish, davlat idoralari va nodavlat tashkilotlari o'zaro hamkorlik aloqalarini tizimli yo'lga qo'yish orqali ijtimoiy muammolarni aniqlash hamda yechimini topish, mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga xizmat qilgan;

fuqarolik jamiyati institutlariga jamiyatni affiliativ integratsiyalovchi sub'ekt sifatida yondashish hamda mazkur ijtimoiy faoliyatni maqsadli o'rganish iqtisodiy va siyosiy turmushni ixtiyoriy asosda qurishga to'la erkinlikni kafolatlovchi ijtimoiy tizim ekanligi sababli ta'lim tizimiga joriy etish zaruratiga oid xulosa va takliflardan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi mablag'larini boshqarish bo'yicha Parlament komissiyasining 2021-yilga mo'ljallangan amaliy harakatlar rejasi ("Yo'l xaritasi")da belgilangan IV. Jamoat fondi mablag'laridan maqsadli foydalanilishini monitoring qilish, amalga oshirilayotgan loyihalar va dasturlarning samaradorligi va natijadorligini oshirish chora-tadbirlarini amalga oshirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi Demokratik institutlar, nodavlat tashkilotlar va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari qo'mitasining 2022 yil 9 dekabrda 04/10-10-186-son ma'lumotnomasi). Natijada, "Inson qadri uchun" tamoyili asosida xalqimizning farovonligini yanada oshirish, inson huquqlari va manfaatlarini so'zsiz ta'minlash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlarning ustuvor yo'nalishlarini belgilashga xizmat qilgan;

Yangi O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarining "o'sish nuqta"larini pul-moliya va soliq tizimini shakllantirish, qonunchilikni rivojlantirish, korrupsiyani bartaraf etish kabi vazifalarini to'g'ri belgilash orqali ichki imkoniyatlarni maqsadga muvofiq yo'naltirish hamda madaniy-ma'rifiy salohiyatni yuksaltirishga doir xulosa va tavsiyalardan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi NNT va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondining "Sog'lom turmush tarzini qaror toptirishda fuqarolik jamiyati institutlarining faolligini oshirish" mavzusidagi "Sayqal"

nodavlat notijorat tashkilotida bajarilgan “Baxtiyor oila – baxtli jamiyat asosi” (2019-2020 yy.) grant loyihasini amalga oshirishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondining 2023 yil 16 fevraldagi 23/1-89-son ma’lumotnomasi). Natijada, jamiyatda ijtimoiy institutlarni yanada takomillashtirish va rivojlantirishga doir jarayonlarni o‘rganishda, tahlil qilish va tegishli xulosalar tayyorlashda, samaradorligini oshirishga xizmat qilgan;

fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini takomillashtirishda hududlarning etnomental xususiyatlarini hisobga olgan inson imkoniyatlari va qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarish, jamiyat tinchligi va farovonligi, shaxsning ma’naviy barkamolligiga erishishni intensivlashtirish mexanizmlariga oid taklif-tavsiyalardan “Yuksalish” umummilliy harakatining O‘zbekistonda jamiyat va davlat rivojining ta’minlash bo‘yicha 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalarni samarali ijrosini ta’minlash maqsadidagi tadbirlarni amalga oshirishda hamda amaliy xulosalarni tayyorlashda foydalanilgan (“Yuksalish” umummilliy harakatining 2022 yil 13 dekabrda 1345/22-son ma’lumotnomasi). Natijada fuqarolik jamiyatining davlat idoralari va nodavlat tashkilotlari o‘zaro hamkorlik aloqalarini tizimli yo‘lga qo‘yish orqali ijtimoiy muammolarni aniqlash va yechimini topishga qaratilgan maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta, jumladan, 2 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalari e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 14 ta ilmiy ish, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola (4 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, sakkiz paragraf, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 134 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning “Kirish” qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, shuningdek, ob‘yekt va predmeti aniqlangan, tadqiqot ishining respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy qilingani, e‘lon qilinganligi, tadqiqotning tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Yangi O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari**” deb nomlanib, unda fuqarolik jamiyati tushunchasi, genezisi, nazariyasi va amaliyoti, taraqqiyot jarayonlarini tadqiq etishning ijtimoiy-falsafiy metodologik asoslari, fuqarolik jamiyati institutlarining

rivojlanish jarayonlari tahlil qilingan.

Dissertatsiyada fuqarolik jamiyati institutlari O'zbekistonda aholining siyosiy va ijtimoiy faolligini oshirish, shaxs huquqlarini ta'minlash va himoya qilish, inson huquqlari madaniyatini shakllantirishda muhim omil ekanligi asoslab berilgan. Keyingi yillarda yurtimizda demokratik islohotlarni amalga oshirish, inson huquq va erkinliklari hamda qonun ustuvorligini ta'minlash borasida ishlar tahlil etilgan. Bugungi kunda mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini barpo etish dunyoning aksariyat davlatlarida bo'layotgani singari huquqiy-demokratik tizimlar umumbashariy va milliy qadriyatlar uyg'unligida qaror topayotganligi insoniyat hayot tarzining eng maqbul rivojlanish yo'li ekanligi e'tirof etilmoqda.

Tadqiqot ishida fuqaro, jamiyat, fuqarolik jamiyati, davlat, huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati institutlari, siyosiy institutlar, demokratik institutlar, fuqarolarning huquq va erkinligi, inson huquqlari, jamiyatning ijtimoiy tuzilmasi, iqtisodiy asoslari, qonun ustuvorligi, saylov, saylov huquqi, fuqarolik, fuqaro faolligi, yurt tinchligi, vatan ravnaqi, xalq farovonligi, yuksak ma'naviyat, daxldorlik hissi, ommaviy axborot vositalarini erkinlashtirish, o'zini o'zi boshqarish, millatlar va konfessiyalararo totuvlik, jamoatchilik nazorati, davlat organlari faoliyatining ochiqligi, ijtimoiy sheriklik kabi muhim tushunchalar fuqarolik jamiyati bilan bog'liq ekanligi asoslab berilgan va tadqiq etilgan.

Dissertant fikricha, fuqarolik jamiyati konstitutsiyaviy huquq va demokratiyaga asoslangan ijtimoiy hayotning zarur tarzi, oqilona usuli sifatida qabul qilingan, insonga uning iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayoti shakllarini erkin tanlashni kafolatlaydigan, qonun ustuvorligiga asoslangan, inson huquq va erkinliklari qaror topgan, ko'ppartiyaviylik, siyosiy institutlar, mafkura va fikrlarning xilma-xilligi ta'minlanadigan hamda o'zini o'zi boshqarish organlarining mavqei baland bo'lgan ijtimoiy tuzum bo'lib, har bir fuqaroning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy va huquqiy jihatdan ehtiyojlarini jamoat birlashmalari va jamg'armalari, o'zini o'zi boshqarish organlari, siyosiy partiyalar va NNTlar ishida ishtiroki orqali ehtiyojlarini qondirish imkoniyatidir.

Dissertatsiyada hozirgi zamon jamiyatshunos olimlarining fuqarolik jamiyati to'g'risidagi qarashlari bir tizimga keltirilib, fuqarolik jamiyati - bu: *birinchidan*, jamiyat hayoti faoliyatining iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy sohalarida ixtiyoriy ravishda shakllangan, boshlang'ich nodavlat tizimlarini o'z ichiga qamrab olgan insoniy birlikdir; *ikkinchidan*, jamiyatdagi iqtisodiy, ijtimoiy, oilaviy, milliy, ma'naviy, axloqiy, diniy, ishlab chiqarish, shaxsiy va nodavlat munosabatlar majmuasidir; *uchinchidan*, erkin individlar, ixtiyoriy ravishda shakllangan tashkilotlar va fuqarolarning turli organlar tazyiqlari, aralashishlari yoki bir qolipga solishlaridan qonunlar vositasida himoyalangan jamiyat bo'lib, unda ular o'zligini namoyon qila olishlari uchun doimiy imkoniyatlarga ega bo'ladilar, - deb ta'rif keltirilgan.

Dissertatsiyada fuqarolik jamiyati haqidagi qarashlar bir qator Sharq va G'arb olimlari ilmiy ijodida yaqqol namoyon bo'lishi qayd etilib, ular tahlil etilgan. Jumladan, Abu Rayhon Beruniy ijtimoiy voqea hodisalarga ta'rif berishdan oldin quyidagi fikrlarni bildiradi, ya'ni "jamiki ijtimoiy hodisa yoxud muayyan tabiiy predmet mohiyatini o'rganishda albatta tizimli va albatta shu predmet zamiridagi

ichki qonuniyat va tarkibdan kelib chiqib yondashish zarurdir. Predmetni o'rganishda shu predmetni hosil etuvchi jihatlar mohiyatini tadqiq etishdan ishni boshlash masala mazmunini atroflicha anglab olish imkonini beradi"<sup>7</sup> - deb o'z fikr-mulohazalarini bildirgani ta'kidlangan. Beruniy doim bir mushohadaga kelganda albatta aqlga tayanish kerak ekanligini bildiradi. Hech qachon tuyg'ularga va hissiyotlarga tayanib ish yuritish yoki hukm chiqarishni yoqlamagan. Forobiy fuqarolik jamiyati hodisasiga "ijtimoiy-madaniy reallik" deb baho bergan va insoniyatni "katta", "o'rtacha" va "kichik" jamoalarga ajratib, jamoatchilik fikrining qanchalik barqaror bo'lishini jamoatchilik vakillari orasidagi aloqalarning mustahkamligiga bog'liq deb bildirgan<sup>8</sup>.

Dissertant fikricha, o'z taraqqiyot yo'lini tanlagan mamlakatimiz erishayotgan muvaffaqiyatlar Prezidentimiz Sh.Mirziyoev tomonidan ishlab chiqilgan va butun dunyoda e'tirof etilgan islohotlarning "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"ni hayotga tatbiq etishning amaldagi natijasidir. Islohotlar natijasida "1991 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra respublikada 95 ta NNT faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, 2000 yilning 1 yanvarga kelib ularning soni 2585 taga, 2016 yil 1 yanvar holatiga ko'ra esa – 8417 taga, hozirga kunda esa 9200 ga yaqinni tashkil etmoqda. Xususan, so'nggi 5 yilda O'zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlarining soni 64,5 foizga oshgani esa, amalga oshirilgan sa'y-harakatlar natijasini yaqqol namoyon etmoqda"<sup>9</sup>, - deb keltiriladi tadqiqotda.

Mamlakatimizda "Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari" tamoyilini izchil amalga oshirish doirasida aholi keng qatlamlari tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan, mustaqil ish olib boradigan, barqaror fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish hamda rivojlantirish uchun barcha zarur tashkiliy-huquqiy va moddiy sharoitlar yaratilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2021-2025 yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"<sup>10</sup> qarorida ko'zda tutilgan kompleks chora-tadbirlarning amalga oshirilishi ushbu ijobiy jarayonni rivojlantirish, ijtimoiy ahamiyatga ega muammolarni hal etishda fuqarolik institutlari rolini kuchaytirish, fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy va ishbilarmonlik faolligini oshirishga yordam bermoqda. Keyingi besh yilda o'zbek davlatchiligi yangi qiyofada namoyon bo'layotganligini kuzatish mumkin. Bu nafaqat sanoat, qishloq xo'jaligi kabi iqtisodiyotning real sektorlari, balki boshqaruvda, demokratik institutlar hamda fuqarolik jamiyatining rivojida ham o'z ifodasini topmoqda. Iqtisodiy islohotlar O'zbekiston nafaqat o'zini, balki butun mintaqaning iqtisodiy markaziga aylanish yo'lidan bormoqda.

Bugungi jarayonlar, ijtimoiy aloqalar tizimlarining murakkablashishi fuqarolik jamiyatiga bo'lgan e'tiborni uzluksiz kuchaytirmoqda. Keyingi yillarda

<sup>7</sup> Бекмуродов М.Б. Ўзбекистонда жамоатчилик фикри. – Тошкент: Ўзбекистон Республикаси ижтимоий фикр жамоатчилик маркази, 1999. – Б.85.

<sup>8</sup> Ганиева М.Х. Общественное мнение как фактор развития межнациональных отношений в Узбекистане. Ташкент, 2009. – С.26.

<sup>9</sup> ННТлар ва фуқаролик жамияти институтларининг қонунчилик базаси мустаҳкамланмоқда. // <https://strategy.uz/index.php?news=1379>.

<sup>10</sup> 2021-2025 йилларда фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида / Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, 04.03.2021 йилдаги ПФ-6181-сон. // <https://lex.uz/docs/5319756>.

fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanishi jadal kechmoqda. Fuqarolik jamiyati insonlarning hayotiy talablari va manfaatlari bilan bog‘liq bo‘lib, aholining asosiy va ikkilamchi ehtiyojlarini tadqiq etishi bilan ahamiyatlidir.

Dissertatsiyada fuqarolik jamiyati ijtimoiy fenomen sifatida real voqelikning barcha sohalariga kirib borishi tahlil qilingan. Siyosiy sohada u demokratiyani o‘rnatish, o‘zini o‘zi boshqarish tizimini rivojlantirishning zarur shakli sifatida harakat qilsa, ijtimoiy sohada odamlararo va jamoalararo jarayonlarni boshqarishning eng muhim vositasi sifatida davlat va jamiyat institutlari faoliyatiga faol ta’sir o‘tkazishi asoslab berilgan.

Tadqiqotning ikkinchi bobi **“Yangi O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarining shakllanishi va ijtimoiy taraqqiyot jarayonlari”** deb nomlanadi. Mazkur bobda taraqqiyot strategiyasini ta’minlashda fuqarolik jamiyati institutlarining roli, faoliyati, ahamiyati va xorijiy davlatlar tajribalari, shu bilan birga, barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda nodavlat notijorat tashkilotlar va fuqarolik jamiyati institutlarining roli falsafiy tahlil qilingan. Mamlakatimizning keyingi besh yillik rivojlanishida muhim dastur “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” yetti yo‘nalish, yuz maqsadni o‘z ichiga olgan. Taraqqiyot strategiyasi mazmun-mohiyati, uni yaqin va o‘rta istiqbolda amalga oshirishda fuqarolik jamiyati institutlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Taraqqiyot strategiyasida BMT va uning ixtisoslashgan muassasalari bilan madaniy-gumanitar hamkorlikni jadallashtirish, BMTning “Inson huquqlari yo‘lida harakatga da’vat” tashabbusini ilgari surish uchun barcha sheriklar bilan yaqin hamkorlik istiqbollari belgilangan. Strategiya doirasida bir qator konsepsiya va dasturlar, 13 ta kodeks, 12 ta qonun, ya’ni har bir ustuvor yo‘nalishda zarur qonun hujjatlari qabul qilinishi nazarda tutilgan.

Dissertant Prezident Shavkat Mirziyoev qayd etganidek, davlat – inson uchun” degan ezgu g‘oyani hayotga tatbiq etish maqsadini ko‘zlagan taraqqiyot strategiyasining ahamiyati uchta darajada namoyon bo‘lishini asoslab bergan. Jumladan, uning milliy darajadagi ahamiyati yangi O‘zbekistonda “inson, uning huquqlari, erkinliklari, ayniqsa, qadri – oliy qadriyat” degan tamoyilga asoslangan mutlaqo yangi milliy huquqiy tizim shakllanishida namoyon bo‘lmoqda. Yillar davomida amal qilib kelgan “davlat – jamiyat – inson” tamoyili Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida “inson – jamiyat – davlat” tamoyilga o‘zgarayotganligi asoslab berilgan. Taraqqiyot strategiyasida ko‘zda tutilgan maqsadlarni Markaziy Osiyo xalqlari o‘rtasida yaqin qardoshlikni qadrlash, qo‘shni mamlakatlar bilan manfaatli hamkorlikni kuchaytirish, mintaqaviy xavfsizlik va barqaror taraqqiyotga erishish bo‘yicha muhim vazifalar taraqqiyot strategiyasining mintaqaviy darajadagi ahamiyatini oshirmoqda.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining xalqaro (global) darajadagi ahamiyati BMT organlari va institutlari, global va mintaqaviy iqtisodiy, moliyaviy va gumanitar tashkilotlardagi faoliyatni kuchaytirish, xususan, iqlim, ekologiya, terrorizm, korrupsiya, migratsiya, kambag‘allik kabi global muammolarni hal etish borasida xalqaro hamkorlikni yangi bosqichga ko‘tarishda namoyon bo‘ladi. Ya’ni O‘zbekistonni BMT tuzilmalari orqali dunyo hamjamiyatiga keng tanitish bilan

bog‘liq ibratli amaliyotni izchil davom ettirish lozim. Bunda O‘zbekiston rahbariyatining BMT doirasidagi tashabbuslarini amalga oshirish, BMT va uning muassasalari bilan iqtisodiy-moliyaviy va konsultativ hamkorlikni rivojlantirish ulkan ahamiyat kasb etadi.

Dissertant fikricha, bugun O‘zbekistonning har bir fuqarosi hayotida sodir bo‘layotgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy sohalaridagi ijobiy o‘zgarishlarni ko‘rish mumkin. 2030 yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarning qabul qilinishi barqaror rivojlanishning milliy standartlarini ishlab chiqish hamda uning iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy va ekologik jihatlarini uyg‘unlashtirish orqali farovonlik darajasini oshirish maqsadida yangi global hamkorlik uchun zamin yaratmoqda.

Mamlakatimizda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 2015 yilning sentyabrida Barqaror rivojlanish bo‘yicha o‘tkazilgan sammitida qabul qilingan 70-son rezolyusiyasiga muvofiq, shuningdek, 2030 yilgacha bo‘lgan davrda BMT Global kun tartibining Barqaror rivojlanish maqsadlarini izchil amalga oshirish bo‘yicha tizimli ishlarni tashkil etish maqsadlarida “2030 yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”<sup>11</sup> qaror ishlab chiqilgan va bugungi kunga qadar mazkur qarorning ijrosi samarali amalga oshirilib kelinmoqda. Mazkur Qaror 2030 yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi Milliy maqsad va vazifalarni nazarda tutadi. Bunda 17 ta milliy maqsadlar belgilanib, ularning ijrosini ta‘minlash uchun tegishli vazifalar ko‘rsatib o‘tildi hamda tegishli mas‘ul ijrochilar belgilanib, ularda barqaror rivojlanishning uchta ya‘ni iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatlarini qamrab olingan. Shuningdek, 2030 yilgacha barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish bo‘yicha muvofiqlashtiruvchi kengash tashkil etilib, “Yo‘l xaritasi” ishlab chiqilgan.

Dissertant fikricha, taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalar ijrosini ta‘minlash va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish fuqarolik jamiyati institutlari zimmasiga ham bir qator muhim vazifalarni yuklaydi. 2021-2025 yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini 2021 yilda amalga oshirish “Yo‘l xaritasi” va 2021-2025 yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning maqsadli ko‘rsatkichlari tasdiqlangan. Unga ko‘ra, ushbu maqsadli ko‘rsatkichlarda nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini davlat tomonidan subsidiyalar, grantlar va ijtimoiy buyurtmalar shakllarida qo‘llab-quvvatlash hajmini 2025 yilda 1,8 baravarga oshirilishi nazarda tutilgan. Mahalliy kengashlar huzuridagi Jamoat fondlariga 2021 yilda 16 milliard so‘m, 2025 yilda 70 milliard so‘m mablag‘lar ajratilishi ko‘rsatib o‘tilgan.

O‘zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasi a‘zolari sonini jami faoliyat ko‘rsatayotgan nodavlat notijorat tashkilotlari soniga nisbatan

---

<sup>11</sup> 2030 йилгача бўлган даврда барқарор ривожланиш соҳасидаги миллий мақсад ва вазифаларни амалга оширишни жадаллаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида / Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қарори, 21.02.2022 йилдаги 83-сон // <https://lex.uz/docs/5870397>.

2021 yilda 10 foizga, 2025 yilda 30 foizga yetkazilishini, har bir davlat organi huzuridagi jamoatchilik kengashlari faoliyatida fuqarolar tashabbusi bilan tashkil etilgan nodavlat notijorat tashkilotlari vakillarining sonini 2021 yilda 5 foizga, 2025 yilda 25 foizga yetkazilishini, nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan yuqori turuvchi tashkilotlarga qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan kiritilgan takliflarning umumiy sonini 2021 yilda 1000 taga, 2025 yilda 5000 taga yetkazilishini ta'minlanishini, mamlakatimizda e'lon qilinadigan davlat dasturlarida ishtirok etayotgan nodavlat notijorat tashkilotlari sonini 2021 yilda 30 taga, 2025 yildagi davlat dasturida 50 taga yetkazilishini belgilangan.

Dissertatsiyada mamlakatda tinchlik va totuvlikni ta'minlash, erkin va farovon jamiyat asoslarini mustahkamlash, yuksaltirish, dunyoning rivojlangan davlatlari qatori kirishi bo'yicha Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan maqsadlarga erishishda nodavlat notijorat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari harakatini birlashtirish muhim ahamiyatga egaligi asoslab berilgan. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining xalqaro (global) darajadagi ahamiyati BMT organlari va institutlari, global va mintaqaviy iqtisodiy, moliyaviy va gumanitar tashkilotlardagi faoliyatni kuchaytirish, xususan, iqlim, ekologiya, terrorizm, korrupsiya, migratsiya, kambag'allik kabi global muammolarni hal etish borasida xalqaro hamkorlikni yangi bosqichga ko'tarish talab etiladi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini amalga oshirishda fuqarolik jamiyati institutlarining o'rni”** deb nomlangan. Unda O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirishning yangi bochqichdagi dolzarb masalalari, xalq bilan muloqot qilish, fuqarolik jamiyati kafolati sifatida tahlil qilinishi, shuningdek, fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda “inson – jamiyat – davlat” uchligi va ijtimoiy transformatsiya jarayonlari falsafiy tahlil qilingan.

Dissertant ta'kidicha, taraqqiyot strategiyasi o'zbek xalqini turli xavflarga bardoshli bo'lish, xatarlarni birga yengishga shaylik, tahdidlarni bartaraf etish, o'zaro nizolashish, bir-biridan raqib, dushman izlash illatlaridan xalos bo'lishga, o'z yurti, ona tili, tarixi, madaniyatini e'zozlash negizidagi vatanparvarlikni yuksaltirishga da'vat etadi. Bu borada “xalqqa xizmat qilishga yo'nalganlik” tamoyilini amalga oshirishda NNTlar va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari roli muhim ekanligini qayd qilish lozim. Davlatning fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash sohasidagi vazifalarini Konstitutsiyada belgilovchi normalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish muammolarini hal qilishda fuqarolik jamiyati institutlarining ahamiyati va rolini oshirishga, ularining faoliyatini subsidiyalar, grantlar va ijtimoiy buyurtmalar shaklida qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

Ayni paytda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishni Konstitutsiya darajasida huquqiy jihatdan mustahkamlash imkoniyatlari yuzaga keldi. Fuqarolarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va kambag'allikni qisqartirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida belgilanib, aholini yangi ish o'rinlari va kafolatli daromad manbai, malakali tibbiy va ta'lim xizmatlari, munosib yashash sharoitlari bilan ta'minlash sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi.

Oliy Majlis huzuridagi Nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondining tashkiliy-huquqiy shaklini o‘zgartirish, davlat subsidiyalari, grantlar va ijtimoiy buyurtmalar berish tartibini soddalashtirish, ajratilayotgan mablag‘larni ustuvor ravishda ta‘lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport, bandlik, ijtimoiy xizmatlar, ekologiya, qurilish, kadastr, transport, kommunal xo‘jaligi kabi sohalarda muammolarni hal etish uchun ijtimoiy buyurtmalarga yo‘naltirilmoqda. Adliya vazirligi va Yoshlar ishlari agentligi bilan birgalikda Jahon xayriya indeksi (The World Giving Index) bo‘yicha O‘zbekistonning dunyodagi yetakchi mamlakatlar qatoriga kirishini ta‘minlash rejalashtirilgan. Ijtimoiy rivojlanish ehtiyojlar dinamikasining o‘shishi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, inson va jamiyat o‘rtasida munosabatlar barqarorligi zamirida sub‘ektiv ehtiyojlar va manfaatlar yotgan bo‘ladi. Holbuki, jamiyatning rivojlanishi uchun yanada yuksak ehtiyojlarni paydo bo‘lishida sub‘ektlarning oldingi ehtiyojlari ijobiy hal etilgan bo‘lib, qondirilishi turtki bo‘ladi.

